SURXONDARYO VILOYATI TERMIZ TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 25-dekabr 299-8-117-Q/25 Termiz tuman hokimligi

Termiz tumani mahalliy budjeti xarajatlari yoyilmasiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 148-moddasiga asosan, tuman hokimligining 2025-yil 19-noyabrdagi 02-13/865-son, tuman Iqtisodiyot va moliya bo’limining 2025-yil 19-noyabrdagi401-sonli xatlarini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1.Termiz tumani mahalliy budjeti mablag‘larini maqsadli sarflanishini tashkil etish, xarajatlarni sohalar bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlash orqali mablag‘larning iqtisod qilinishiga erishish, kreditor qarzdorliklarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida Termiz tumani hokimligining ommoviy axborot vositalari web sayti uchun, tuman hokimining 2025-yil 31-oktabrdagi 304-8-117-F/25-son Farmoyishiga asosan xodimlarni moddiy rag‘batlantirish maqsadida, tuman Iqtisodiyot va moliya bo’limi xodimlariga kuz-qish mavsumida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilish uchun mablag‘lar ajratish to‘g‘risida xati malumot uchun qabul qilinsin.

2.Xalq deputatlari Termiz tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Termiz tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-1-014-8-117-K/24-son qaroriga asosan tuman mahalliy budjeti parametrlarida rejalashtirilgan 2-ilovasi Termiz tumani budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larining cheklangan miqdorlariga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

3.Termiz tumani hokimligi bosh xisobchisi (Z.Sagizov) va tuman Iqtisodiyot va moliya bo’limi boshlig’ining birinchi o’rinbosari (G‘.Toshov)larga ajratilgan mablag‘ning amaldagi qonunchilikda o‘rnatilgan tartibda samarali va maqsadli sarflanishini ta’minlasin.

4.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Qalandarov zimmasiga yuklansin.

Termiz tumani hokimi **SH.X.Nazarov**

Termiz tumani hokimining
2025-yil 25-dekabrdagi
299-8-117-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Termiz tumani mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan hududiy mablag‘ taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlariga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

M A ' L U M O T

ming so'mda

№	Mablag‘ taqsimlovchilar Bo'lim K ichik bo'lim Bob	Kiritilgan o‘zgartirish	
		Kamayish	Ko‘payish
1	7011-312-222	-5700	31278
2	7011-209-018	-1300	
3	7092-100-072	-10558	
4	7091-100-072	-2880	
5	7096-300-072	-11000	
6	7011-204-018	-2800	10800
7	7011-903-340	-240	
8	7045-208-084	-1600	
9	7042-990-084	-900	
10	7065-200-084	-1700	
11	7082-310-056	-1600	
12	7083-610-205	-1800	
	Jami	**-42078**	**42078**